

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

Alisher Navoiy nomidagi
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet: Ijtimoiy - iqtisodiyot

Yo`nalish: Ijtimoiy ish

Fan: **Ijtimoiy antropologiya**

KURS ISHI

Mavzu: **CHIKAGO IJTIMOIIY ANTROPOLOGIYA**
MAKTABINING VUJUDGA KELISHI

Bajardi: Parmonov Javlon

Tekshirdi: kat.o`q. Sherov M.

Samarqand

MAVZU: CHIKAGO IJTIMOIIY ANTROPOLOGIYA MAKTABINING VUJUDGA KELISHI

Reja.

- 1. Чикаго мактабининг асосчиси.**
- 2. Чикаго университети.**
- 3.**

АҚШда жамоатчилик фикрини шаклланишига Чикаго мактаби ҳам алохида ўрин эгаллайди. Унинг асосчиси А.Смоллдир (1854-1926) Албиона Смоллнинг асосий эътибори манфаатлар назариясига қаратилиб, соғлиқ фаровонлик, мулоқот билиш, гўзаллик, адолатга қаратилган йўналиш билан боғлиқ эди. У физикада атом қандай рол ўйнаса манфаат ҳам социологияда шундай рол ўйнаши керак деди. Манфаатларнинг бир-бирига ўтиши, манфаатлар ва ундан келишувга ўтиш мумкинлигини қайд этади. Социал ходисалар уч омилнинг ўзаро таъсири натижасидир: табиат, индивидлар ва социал институтлар. У илмий тадқиқотни тўрт босқичга бўлди: қайд этиш, аналитик, баҳолаш ва конструктив. Социология жамиятни «амалда яхшилашга» хизмат қилиши керак деди. Кейинчалик манфаатга хулқни тартибга солувчи, социал жараёни баҳолавчи омил сифатида қаради.

Чикаго мактабининг яна бир кўзга кўринган вакилларида бири Уильям Самнеру (1840-1910). У социал эволюция сўзсиз шубҳасиз характерга, табиий танлов ва яшаш учун кураш эса барча учун универсалдир, деган фикрни илгари сурди. Социал тенгсизлик цивилизация ривожланишининг табиий ҳолати ва зарурий шартидир. Бу ходисага одамларнинг ўзаро муносабатигина эмас, балки нима қилаяпти, деган масала қизиқтиради. Жамият ижодий характерга эга бўлиб, атроф муҳит устидан назорат умумий қадриятларни ўрганиш ва ўзгартириш орқали амалга

оширилади. У «гурух» тушунчасига алоҳида эътибор билан қаради. Уильям Сомнернинг: «Биз-гурухларимиз», «улар-гурухлардир» тушунчаси кўпроқ машхур бўлди. «Биз гурухлар»да бирдамлик, «улар-гурухлар»дирда кўпроқ душманлик туйғуси устуворлик қилади. Охиргиси этноцентризм қараши билан боглик бўлиб, унда ўзининг гурухи бошқа одамлар учун марказ бўлиб, қолганлар эса ана шу атрофда баҳоланади. Жамиятдаги фаровонлик тўқлик, урф-одат, ахлоқ ва қонунларни бажарилишини таъминлайди урф-одатлар нафақат манфаат балки турли баҳоналарни тугдиради. Баҳоналарда очлик, жинсий хохши, ўзини яхши кўринг, севиш ва асоссиз талвасага тушиш билан характерланади.

Чикаго мактабининг кўзга кўринган вакилларида яна бири Эдвард Росс (1866-1951) бўлиб, у кўпроқ социал тартиб ва бирдамлика табиати билан қизикди. Бирдамликка социал назорат жараён нуқтаи назаридан қаради. Бирдамлик орқали индивид ва гурух ягона ташкилот ёки уюшмага бирлашим мумкинлигини кўрсатди ҳатто одамлар ўртасидаги муносабатлар ҳам келишуви ёки назорат шаклида намоён бўлишлигини таъкидлади.

Умуман социологиянинг Чикаго мактаби вакиллари социологияни назарий ва амалий масалалари, социал муаммоларига катта эътибор бердилар. Чикаго ўзига хос «социал лаборатория» Маркази ролини ўйнади. Бу ерда қишлоқ жамоаси ва эмигрантлар, уларнинг шаҳар муҳитига мослашиши, ҳуқуқнинг бузилиши, оилалардаги муаммолар, ёшликдаги жиноятчилик, дарбадарлик каби масалаларда кенг тадқиқотлар олиб бордилар. Бу социал лабораторияда Чикаго университети катта роль ўйнади.

"Ижтимоий антропология" атамасини бундан олтмиш йилча вақт муқаддам у ифодаладиган соҳани этнологиядан фарқлаш мақсадида қўллай бошланди. Ижтимоий антропологиянинг эълон қилинган методи ҳар доим табиий фанлардаги индуктив методни кишилиқ жамиятига унинг институти ва тадрижига нисбатан қўллашдан иборат эди. Бироқ индуктив методни янги соҳада қўллашга фақат аста-секинлик билан ўрганиш/мумкин. Бунга химиянинг Бэкондан то Лавазьегача бўлган тарихи мисол бўла олади. Худди

шунингдек, бугунги ижтимоий антропология ҳам 1890 йилдаги антропология эмас. У пайтлардаги ижтимоий антропология мунозаралари, асосан, (дин, тотемизм, экзогамия ва ҳ.к.нинг) келиб чиқиши тўғрисида олиб борилар эди. Ҳозирги кунда ҳам 1890 йилги методлар ва ғояларга содиқ бўлиб қолаётган ижтимоий антропологлар йўқ эмас. Айни пайтда, мазкур фан соҳасида бажарилаётган ишлар, аввало, экспериментал тадқиқотлардан иборат бўлиб, улар ўзида муайян ижтимоий тизимларни кузатиш ва таҳлил қилишни мужассамлаштиради ва турли типлардаги тизимларни қиёслаш ва мавжуд тахминий концепцияларни текшириб кўришга йўналтирилган. Бугунги ижтимоий антропология нима билан шуғулланишини билмоқчи бўлган ҳар бири киши Аренс Герх ва Кемпбеллнинг "Ирландияда оила ва ҳамжамият" номли ажойиб китобини ўқиб чиқиш керак.

4 Антропологик таълим энг яхши йўлга қўйилган факультет Дтрдан бири "Чикаго университети"да. Бу ерда ижтимоий антропологияни беш қисмга: жисмоний антропология, археология, этнология, лингвистика ва ижтимоий антропологияга бўладилар. Факультетга кириш даврида бакалавр даражасига эга бўлган талабалар ўқиш даврида ана шу беш предметни албатта эгаллашлари ва улар бўйича қийин имтиҳонлардан ўтишлари керак. Кейин талаба докторлик даражаси олиш учун ана шу соҳаларнинг бирига ихтисослашади. Иқтидорли талабалар бу ишнинг барчасини -тўрт йилда уddалашади, бироқ кўпчилик талабалар унга анча кўпроқ вақт сарф қилишади.

Ана шу илмий предметлар комбинациясини навбат билан ҳар бирининг нуқтаи назари билан кўриб чиқиш мумкин. Том маънодаги жисмоний антропология, инсон биологиясидан фарқ қилувчи фан сифатида гоминид (котгпгде) оиласидаги ўзгаришлар ва инсон эволюциясини ўрганиши керак./Демак, у фақатгина ҳозирги кунда мавжуд бўлган Ното заргпз турларини ўрганиш билангина чекланмай, шунингдек, инсон ва приматлар палеонтологиясини ҳам ўрганиши лозим.

Билимдон жисмоний антрополог бўлишни истаган талаба аввало,

биология, (айниқса, приматларга оид) қиёсий морфология, инсон анатомияси, гистология, эмбриология ва физиология бўйича чуқур тайёргарликдан ўтиши керак. Шунингдек, унинг археология ва этнология билан бирга таниш бўлиши ҳам маъқул. Лингвистика ёки ижтимоий антропологияни ўрганиш унинг махсус илмий ишида ҳеч қандай ёрдам кўрсатмайди.

Этнология, номидан ҳам кўриниб турганидай, бу "халқлар" тўғрисидаги фан. Халқлар ёки этник гуруҳлар бир-бирларидан ирқий белгилар, тил ва маданият бўйича фарқланадилар ва худди шулар бўйича умумийликка ҳам эгадирлар. Этнолог халқларни мана шу умумийлик ва тафовутлар асосида тасниф қиладилар, яъни у ирқий, лингвистик ва маданий таснифлар билан иш юритади. Бундан ташқари у турли усуллар ёрдамида тарихий ўтмишда халқларнинг кўчиб юришлари, ўзаро таъсири ва ривожланиши тўғрисида билим олишга ҳаракат қилади.

Билимдон этнолог жисмоний антропология, лингвистика ва ижтимоий антропология бўйича чуқур билимларга эга бўлиши кераклиги аниқ ва равшан. Этнологияга оид адабиётлар нотанқидий спекулятив мулоҳазалар билан тўлдириб-тошириб юборади. Брахицефалия ва долихоцефалия тўғрисида шаддот фикр юритаётган, бироқ бош мия чаноғи тузулишидаги мураккабликлардан мутлақо беҳабар бўлган муаллиф бизга инсон пайдо бўлган даврдан бошлаб юз берган миграция ва ривожланишлар тавсифини тақдим қилади. Лингвистикадан мутлақо беҳабар бўлган бошқа яна биттаси унчалик сифатли бўлмаган луғатлардан танлаб олинган бир неча сўзларнинг ўхшашлиги асосида мутлақо турлича бўлган тилларнинг қардошлигини исботламоқчи бўлади. Ижтимоий антропологиядан хабарсиз ва шунинг оқибатида тотемизм ва экзогамия сингари ижтимоий институтларнинг моҳияти масаласида мутлақо нодон бўлган учинчиси бизни бутун дунёда бу институтларни дунё бўйлаб олтин, бриллиант ва каури чиғаноқларини излаб тентираб юрган мисрликлар томонидан киритилганига ишонтирмоқчи бўлади.

Тарихгача бўлган давр археологияси аслида тарихдан аввалги давр

халқларини уларнинг қолдиқлари, манзилгоҳларининг қолдиқлари, суяклари, улар тайёрлаган ва ишлатган қуроллари бўйича ўрганадиган этнологиянинг кичик тури (палеоэтнология)дир. Археолог ана шу йўқолиб кетган халқларнинг тили ва ижтимоий институтлари тўғрисида ҳеч қандай қолдиқларни учратмаслиги сабабли унинг тадқиқотлари учун лингвистика ёки ижтимоий антропологияни билиш шарт эмас. Бошқа томондан эса, у геология ва топографикани муайян даражада билиши лозим. Этнология ва антропологиянинг узвий алоқада иш тутиши олий даражада муҳимдир. Чунки улар битта фанинг икки турли бўлимларидир.

Алоҳида тил ёки тиллар гуруҳини ўрганишдан фарқли тарзда умуман тилни тизимли ўрганадиган лингвистика АҚШда антропологиянинг бир бўлими ҳисобланади. Англияда бу фан ҳозирча расмий эътироф этилгани йўқ, бундан Лондондаги Шарқ (ва Африка) тадқиқотлари мактаби истисно. Лингвистика бўйича ихтисмослашмоқчи бўлган талаба учун жисмоний антропология ва тарихгача давр археологиясининг ҳар бир маълумотли одамдан кўра кўпроқ ҳажмда билиш шарт эмас. Бошқа томондан лингвистика этнология ва ижтимоий антропология билан узвий боғланган. Масалан, олий халқларнинг этнологик муаммоси фақатгина археологик, ирқий ва маданий муаммогина бўлиб қолмай, улардан кам бўлмаган даражадаги лингвистик муаммо ҳамдир.

Мана ниҳоят биз ижтимоий антропологияга ҳам етиб келдик. Бу ижтимоий институтлар: ҳуқуқ, дин, сиёсий ва иқтисодий ташкилот ва ҳ.к. тўғрисидаги умумий назарий фан. Ижтимоий антрополог ўзининг ўрганиш соҳасида жисмоний антропология маълумотларидан фойдаланмайди. Агар қачонлардир ирқий (яъни биолошк ирсий) сифатлар ижтимоий институтлар ва уларнинг ривожига таъсир ўтказиши исботланса, унда мана шу фактни ҳам у тегишли тарзда ҳисобга олиши керак бўлади.

Тарихгача давр археологияси ижтимоий антропологияга дин, ҳуқуқ, қариндошлик ёки иқтисодий тизимларни қиёсий ўрганиш бўлимлари сингари маълумотларни бера олмайди. У шунингдек, технология, у ижтимоий

антропологияга киритиладиган тарзда, яъни техник кўникмалар тизими ва яхлит ижтимоий тизимнинг бошқа бўлаклари ўртасидаги алоқадорликни аниқлаш маъносида бирор бир сезиларли ёрдам кўрсата олмайди. Ижтимоий антрополог тарихгача давр археологиясининг умумий хулосалари билан таниш бўлиши кераклиги аниқ ва равшан, бироқ археологик тадқиқотнинг методлари ва тафсилотлари унинг учун алоҳида фойда келтира олмайди. Кўпинча ижтимоий антропология ва этнология ўртасидаги ўзаро муносабатлар ўртасида чалкашлиklar вужудга келади. Улар фақатгина муайян даражада айнан бир хил фактлар билан иш кўрадилар. Бироқ улар бу фактларга мутлақо турлича ёндашдилар. Этнология учун Америка ҳиндуларининг аجدодлари қачон ва қандай қилиб Америка қитъасига келиб қолганини ва европалиklar улар билан дастлабки мулоқотга киришганда кўзга ташланган улардаги ирқий, тил ва маданиятдаги ўзига хосликлар қандай пайдо бўлгани ва ривожлангани ҳақидаги масала типик муаммо ҳисобланади. Ижтимоий антропология учун, ўз навбатида, "ҳуқуқнинг моҳияти нима?" сингари муаммо типик ҳисобланади. Этнолог ва ижтимоий антрополог айнан битта Америка ҳиндулари қабиласини ўрганишлари мумкин, бироқ улардан бири мана шу қабиланинг қитъада/яшаётган халқлар умумий манзарасида тутган ўрни билан қизиқса, иккинчиси бу қабила қандай қилиб урф-одатларнинг бузилишига қаршилиқ кўрсатиши ва бундан ҳуқуқнинг умумий назарияси ва функцияси учун қандай хулоса чиқишини билишга қизиқади.

Этнология ҳам, ижтимоий антропология ҳам дала тадқиқотларига эҳтиёж сезганлари учун меҳнатни тежаш нуқтаи назаридан дала тадқиқотчиси айнаи бир пайтнинг ўзида ҳам этнолог учун, ҳам ижтимоий антрополог учун махсус материалларни тўплаш мақсадга мувофиқ бўларди. Баъзи дала тадқиқотларида айнан шундай қилинди ҳам. Бироқ ижтимоий антропология дала тадқиқотидан шунчаки тавсифни талаб қилмайди; шунингдек, у назарий таҳлилни ҳам талаб этади. Этнология эҳтиёжлари нуқтаи назаридан ажойиб туюладиган сонсиз-саноксиз этнография

рисолалари мавжуд, бироқ улардан фойдаланишни истайдиган ижтимоий антропология учун бу тадқиқотлар жуда қониқарсиз.

Этнография бўйича дала тадқиқотлари одатда, ёзувга эга бўлмаган халқлар билан чекланади. Сўнгги ўн йил давомида ижтимоий антропология Массачусетс штатидаги шаҳарчалардан бирида, Миссисипи штатидаги шаҳарчалардан бирида, Француз-Канада ҳамжамиятида, Ирландиядаги Клер графлигида, Япония ва Хитой қишлоқларида дала тадқиқотларини ўтказишди.

"Маданийлашган" мамлакатларда махсус тайёрланган тадқиқотчилар томонидан ана шундай тадқиқотларнинг ўтказилиши келажак ижтимоий антропологиясида борган сари кўпроқ роль ўйнайди.

Энди биз антропологиянинг турли бўлимлари ўзаро қандай боғланишини кўришимиз мумкин. Бу ўтмишда мавжуд бўлган ва ҳозир ҳам мавжуд ирқ ва халқларни жуғрофий, тарихий ва таснифий тадқиқ этишда этнологиянинг (археология билан бирга) марказий ўрин эгаллашидир. Айнан шу сабабга кўра, этнология ва антропологияга кўпинча айнан бир нарса деб қарашади. Қизиғи шундаки, Қироллик антропология институтининг юз йиллиги муносабати билан антропологиянинг келажакига бағишланган симпозиумда жисмоний антропология, археология, ижтимоий антропология ва моддий маданиятни ўрганиш бўйича мунозаралар олиб борилди. Лекин этнологиянинг келажак тўғрисида гапирадиган бир киши ҳам топилмади. Этнология жисмоний антропология ва лингвистикадан кўп нарса олади, бироқ бунинг эвазига ўзи жуда оз нарса беради. Ижтимоий антропология эволюцияни ўрганувчи соҳа сифатида ҳозирги этнологларнинг баъзилари орасида обрўга эга эмас, шунинг учун унга ўзлари оз нарса берадилар ва ундан оз нарса оладилар.

Этнология халқлар тарихи билан шуғулланади. Бироқ тарихнинг бошқа қисмлари антропологияга киритилмайди. Айни пайтда ижтимоий антропология институтлар тарихини - иқтисодий тарих, дин, ҳуқуқ, сиёсий ташкилотлар, фан ва ҳ.к. тарихи билан жуда узвий боғланган. Европа ёки

христианлик тарихи уни Ҳиндистон ва Хитой, ислом ёки буддизм тарихидан кўра кўпроқ қизиқтирмайди.

"Антропологиянинг келажаги" мақоласининг муаллифи Қироллик антропология институтининг юз йиллиги муносабати билан ўтказилган мунозаралар қисқа тавсифини келтирар экан, қуйидагича савол қўяди: "жаҳон тарихи ва ижтимоий институтларнинг ривожини ким ўрганиши керак?" Жавоб бераман: биринчи навбатда тарихчи. Ижтимоий антрополог ўзича мустақил тарзда қадимги Юнонистон ва Рим, Ҳиндистон, Хитой, Россия, Эрон ва Туркиянинг иқтисодий, сиёсий, ҳуқуқий ва диний тарихи бўйича биринчи манбаларни ўргана олмайди. Унинг учун мана шу соҳаларнинг ҳеч бўлмаса биттаси бўйича чуқур билимларга эга бўлиш типик эмас. Институтлар тарихи ва ривожланишига оид фактларни ижтимоий антрополог тарихчидан олишига тўғри келади, айти пайтда у ёки бу тарихчига қанчалик ишониш мумкинлиги тўғрисида унинг ўз фикри бўлиши керак. Шундан кейин ижтимоий антрополог мазкур маериялдан ҳуқуқ, дин, иқтисодий ташкилотлар ва ҳ.к. тўғрисидаги умумий фаразларни шакллантириш учун фойдаланади. Мазкур фаразлар текширилишига эҳтиёж сезади, гарчи улардан баъзи бирларини бир неча тарихий жамиятларни қиёслаш жараёнида верификация қилиш мумкин бўлса ҳам, уларнинг ҳақиқийлигини сўнгги текшириш мавжуд ижтимоий тизимларни ҳақиқий (тажрибали) кузатиш жараёнида амалга ошади.

Сиёсий, иқтисодий ва ҳуқуқий тизимлар фақат ижтимоий антропологияда эмас, балки иқтисодиёт, сиёсат ва юриспруденция фанларида ҳам ўрганилади. Бироқ бундаги тадқиқот методлари бир-биридан кучли фарқланади. Ана шундай тафовутлардан бири, албатта, энг муҳими эмас, шундаки, санаб ўтилган учта фанда эътибор жамиятнинг муайян типлари билан чекланади. Ижтимоий антропология эса, барча кишилиқ жамиятларини ўрганади, энг кўп эътиборни у санаб ўтилган ижтимоий фанлар эътиборидан четда қоладиган соҳаларга қаратади. Тўғри, ҳозирги кунда зикр этилган уч ижтимоий фаннинг ижтимоий антропология билан яқин алоқага

кириш нуқталари йўқ, бироқ антропологиянинг ривожланиши билан ана шундай алоқадорлик ўрнатилишини кутиш керак.

Chikago: shuhrat ummoniga sho'ng'ib Amerikaga borar ekan, Redkliff-Braun yo'lda Fan taraqqiyoti Britaniya assosiasiyasining antropologiya seksiyasi Prezidenti lavozimini qabul qilish va uning a'zolari oldida shu lavozim sohibi an'anaviy murojaatini qilish uchun qisqa muddatga Londonda to'xtadi. Murojaat "Antropologii tadqiqotlarning hozirgi holati" nomi bilan chop etildi. Unda ijtimoiy antropologiyaning vazifasi "ijtimoiy hayotning umumiy qonun va tamoyillarini kashf etish" ekani, bu vazifa "tarixiy nuqtai nazardan" va yozuvga ega bo'lmagan xalqlar o'tmishini gipotetik spekulativ tuzilmalar yordamida tiklashga urinishsiz bajarilishi lozimligi yana bir marta ta'kidlandi. Chiqishda qandaydir yangi g'oyalar yo'q edi, biroq "ijtimoiy tizim", "ijtimoiy tuzilma" va "ijtimoiy funktsiya" singari muhim tushunchalar aniqlashtirildi. Bundan tashqari M.Srinivas ta'kidlashicha, agar Redkliff-Braun avvallari ijtimoiy antropologiyaning predmeti "madaniyat yoki ijtimoiy hayot" degan bo'lsa, endi "madaniyat" tushunchasi umuman ishlatmay qo'yildi va u "ijtimoiy tuzilma" tushunchasi tomonidan to'laligicha siqib chiqarildi⁵⁰. Bu juda muhim hol, u olimning g'oyalari borgan sari ko'proq ijtimoiy-tuzilmaviy yondashuv doirasida rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Shundan keyin Redkliff-Braun Chikagoga yo'l oldi va u yerda 1937 yilgacha ishladi. Uning ishi dare berish, talabalar bilan ishlash va dala tadqiqotlariga rahbarlik qilishdan iborat bo'ldi. "Ko'p yillar davomida birinchi marta, - yozadi U.R.Uorner va F.Eggat, - u ma'muriy vazifalarni bajarmaydi va yozish hamda dars o'tish uchun bo'sh vaqtga ega bo'ldi. U o'zining Amerika hindulari ijtimoiy tuzilishi bo'yicha ko'hna bilimlarini tiklay boshladi, ibtidoiy huquq va ijtimoiy sanksiyalar tushunchasining o'z variantini ishlab chiqdi, linijning hozirgi talqinlari uchun asos yaratdi. U ijtimoiy antropologiyani jamiyatni qiyosiy o'rganish sifatida tushunishni kengaytirdi va tizim holiga o'zining qator ajoyib ma'ruzalari va seminarlarda keltirdi va ijtimoiy antropologiya metodlarini G'arb va Uzoq Sharq jamiyatlariga qo'llashni rag'batlantirdi"⁵¹.

AQShda Redkliff-Braunga qiziqish juda katta edi. A.Kryoverning taklifiga

ko'ra u Berklidagi Kaliforniya unisersiteti talabalari oldida ijtimoiy antropologiyaning vazifalari to'g'risida ma'ruzalar o'qidi⁵². U Nyu-Yorkda ham ma'ruzalar o'qidi. M.Mid bu haqda shunday eslaydi: "Redkliff-Braun bir qator ma'ruzalar o'qish uchun Kolumbiya universitetiga keldi. U har doim yalqov va badihalarga moyil edi. Bu yerda ham u oshiqcha jon kuydirmadi, biroq Reo va men birinchi qatorda o'tirib uning barcha ma'ruzalarini tingladik, ulardan biz juda yaxshi narsalarni kutgan edik, bunga erishdik ham. Oqshomlari men o'zimning eng chiroyli ko'ylaklarimni kiyar va yemak uchun Redkliff-Braun yaxshi ko'rgan narsalarni tayyorlar edim. Yozgi semestr oxirida... Redkliff-Braun Chikagoga ketib 1935-1936 yillardan oldin taklif qilingan professor sifatida Xitoyga bordi va bu yerdagi Yan-Szi universitetida ma'ruzalar kursini o'qidi; bundan boshqa vaqtlarda u AQShda bo'lar edi. U bevosita muloqot, maslahatlar, ma'ruza va seminarlar bilan cheklanib, juda oz asarlar nashr etdi.

Shu davrda e'lon qilgan ishlari orasida eng mashhuri "Ijtimoiy fanlarda funksiya tushunchasi haqida" (1935)⁵⁴ maqolasi bo'lib, u faqat antropologlar orasida emas, sosiologlar orasida ham qizg'in munozaralarga sabab bo'ldi, chunki u mazmuniga ko'ra sosiologik maqola edi⁵⁵. Britaniya antropologiyasi vakillarining nazariy "nuqtai nazarlari" bir xil ekanligi, umuman "funktionalizm to'g'risida" mulohaza yuritmoqchi va uning, intellektual maydondagi aniq va ravshan "o'rni"ni topmoqchi bo'lganlarga u mana shunday imkon berdi. Bu maqola ijodiy ilhom natijasiga o'xshamaydi. Aftidan u buyurtma bo'yicha yozilgan ko'rinadi; u olimning boshqa ishlaridan tilining o'ta soddaligi va yuzakiligi bilan ajralib turadi. Ochiq aytish mumkinki, agar Redkliff-Braun ishlari orasida qo'rqqmasdan o'tmishda qoldirish zarur bo'lganlari mavjud bo'lsa, mazkur ish so'zsiz o'shalar jumlasiga kiradi. Achinarlisi shundaki, Redkliff-Braun to'g'risida uning aynan mana shu ishi bo'yicha, u yozgan ajoyib ishlarni e'tibordan chetda qoldiribi xulosa chiqarishadi. Shunday bo'lsa ham, mazkur maqolaning e'lon qilinishida muayyan asos bor edi (avvalo o'sha davrlarda borgan sari modaga aylanayotgan "funksiya" tushunchasiga munosabatni aniqlashtirish ma'nosida). Bundan tashqari unda ko'tarilgan

boshqa ba'zi masalalar ham diqqatga loyiqdir: avvalo, "funksiya"ga ta'rif berilgan bevosita Dyurkgeymga murojaat qilish; ikkinchidan, ijtimoiy antropologik tadqiqotlarda ijtimoiy morfologiyannig rolini ko'rsatish (bunda ham Dyurkgeymga murojaat qilish orqali); uchinchidan, jamiyatning funksional birligi to'g'risidagi gipotezani aniq ifodalash; to'rtinchidan, "ijtimoiy tuzilma"ning ustuvorligini aniq va ravshan belgilash.

Pedkliff-Braunning ajoyib hayot yo'li haqida fikr yuritish ekan, A.Elkin, bizning fikrimizcha, uning xaraktyoridagi eng muhim xususiyatlardan birini aniq ifodalaydi: "Redkliff-Braun osoyishtalikning asoschisi va ayni paytda buzuvchisi edi. Yangi fakultet ochilmoqda; u lavozimdan umid qiladi, lavozimga erishadi va nima qilishni aniq bilgani holda ishga kirishadi. Besh yildan keyin yana yangi fakultet ochiladi; u yana lavozimdan umidvor, unga erishadi va ishni boshlaydi; biroq yane besh yil o'tadi va u yana o'rnidan yangi fakultetni tashkil qilish uchun bo'lmagan taqdirda ham, uni harakatga keltirish uchun qo'zg'aladi, Chikagoda ham, keyinroq Oksfordda ham xuddi shunday bo'lgan edi. U hatto iste'foga chiqqach ham osoyishtalikning asoschisi va buzuvchisi bo'lib qoldi. Redkliff-Braun juda qiyamatli va muhim bu rolni ajoyib ijro etdi... "Besh yilga mo'ljallangan" tashkilotchi tipi, missioner tipi boshqa kasblarda ham namoyon bo'ladi, ularda ham yaratuvchilik rolini bajaradi... [Biroq bunday turdagi] asoschi odatda ishni orqaga surishni, qat'iyatsizlikni va xasislikni yoqtirmaydi. Aynan mana shu narsalar Redkliff-Braunning jig'iga tegar edi. Masalan, Keyptaunda yangi fakultetni tashkil qilib, Janubiy Afrikada o'tkaziladigan tadqiqotlar rejasiga kelar ekan, u moliyalashtirish yo'qligidan g'azablangan edi. Shuning uchun u Sidneydagi kafedrani olish imkoniyatidan poyafzalidagi Janubiy Afrika changlarini qoqib tashlash uchun va o'z xarakteriga ko'ra shunday hodisalarga ko'nikib qolganlarga saboq berish uchun, o'zi yaratgan poydevorga bino qurish uchun moliyalashtirishni izlab namuna ko'rsatdi"⁴⁹. Oradan besh yil o'tdi va endi Redkliff-Braun "poyafzalidagi Avstraliya changlarini qoqa boshladi".

1930 yilda Milliy tadqiqot kengashining ijroiya komiteti uning g'ashini keltira boshladi, uning fikricha, ijroiya komitetiga antropologii

dasturlarni rejalashtirish uchun "mantiq" yetishmas edi. U o'zini ham, ijroiya komitet tarkibiga kiritishni iltimos qilib murojaat etdi; o'nga rad javobini berishdi. O'sha yiliy o'q u Rokfeller jamg'armasi (yiliga 20 ming dollar) va Milliy tadqiqot kengashi (yiliga 1 ming funt sterling) mablag' ajratishini ko'zlaydig'an Ijtimoiy va ma'muriy antropologiya instituti yaratish loyihasini taqdim qildi. Umuman olganda, Kengash bu loyihaga e'tiroz bildirmadi, biroq bu taklifdan oxir-oqibat hych narsa chiqmadi. Chunki keyingi yildayoq moliyaviy yordamsiz qolish ehtimoli borgan sayin kuchaydi va u zudlik bilan Rokfeller jamg'armasidan yana bir yillik grant olishga ko'maklashishni iltimos qilib, Kengashga murojaat etdi. Shu davrda 5 yil davomida mehr bilan tiklangan "bino" uning ko'z o'ngida yemirila boshladi. Viktoriya va Tasmaniya hukumati Sidney universiteta antropologik dasturining rivoji uchun navbatdagi badalni to'lashdan voz kechdi, bu esa boshqa barcha ishtirokchilarni ham moliyaviy majburiyatlardan ozod qilar edi. Bularning barchasi birdaniga yuz bermadi, bu dastlab mazkur loyihani qo'llagan odamlarning hafsalasi pir bo'lganligi natijasi edi. Redkliff-Braun va uning kafedrasidan ancha shitob, aniq va amaliyot uchun foydali bo'lgan natijalarni: Yangi Gvineya, Papua va aborigen Avstraliyadagi o'zgarishlarni izohlash, aniq takliflar va tavsiyalarni kutgan edilar. Buning o'rniga esa, statik jamiyatlarni o'rganish va tavsiflash, shuningdek, amaldorlar uchun kurslar taklif qilindi, bu kurslarda sof antropologiyani ma'murlar intellekti va talablariga biroz bo'lsa ham moslashtirish uchun urinib ham ko'rmadi. Redkliff-Braun amaliy antropologiyani hali vaqti kelgani yo'q, deb hisoblardi va amaldorlar e'tiboriga sof nazariyani taklif qilar ekan (bu uning fikricha mazkur bosqichdagi yagona vazifa edi), ular hych bo'lmaganda nima bilan ish ko'rayotganlarini tushunib oldilar, deb umid qilgan edi. Ular esa, o'zlari kutgan narsaga erishmadilar; ular boshqa narsani kutgan edilar va o'zlariga taklif qilingan narsani tushunmadilar.

Vaziyatdan qandaydir yo'l bilan chiqish maqsadida, 1930 yilning dekabrda Redkliff-Braun antropologiya komissiyasi raisi lavozimidan zudlik bilan iste'foga

chiqish to'g'risida Kengashga murojaat qildi, chunki u Sidney universitetiga moliyaviy yordam ko'rsatishni so'rab Rokfeller jamg'armasiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilmoqchi edi. Birok, kafedraning yopilishi antropologik dasturlarni tugatilishi, "Okeaniya"ning chiqishi to'xtatilishini ich-ichidan sezib turar edi va kafedradan ketish uchun ruhan tayyor edi. Unga Fan taraqqiyoti Britaniya assosiasiyasining antropologiya seksiyasi prezidentiga va Chikago universiteti antropologiya fakultetida professorlik lavozimini taklif qilishlari bilanoq u darrov rozilik berdi. 1931 yil dekabrda uning Sidney universitetida kafedra mudiri lavozimidan ozod qilishlarini so'rab qilgan murojaati qoniqtirildi va u yezda ko'ngli g'ash, biroq yaxshilikka umid qilib Avstraliyani tark etdi.

Sidney kafedrası,"Okeaniya" jurnali va Avstraliyadagi antropologik tadqiqotlar istiqboli to'g'risidagi uning hadiklari amalda tasdiqlanmadi. Ancha uzoq davom etgan og'ir davrdan keyin moliyaviy yordam tiklandi va ishlar yurishib ketdi. Biroq Redkliff-Braun endi juda uzakda edi.

Shu davrda e'lon qilgan ishlari orasida eng mashhuri "Ijtimoiy fanlarda funksiya tushunchasi haqida" (1935)⁵⁴ maqolasi bo'lib, u faqat antropologlar orasida emas, sosiologlar orasida ham qizg'in munozaralarga sabab bo'ldi, chunki u mazmuniga ko'ra sosiologik maqola edi⁵⁵. Britaniya antropologiyasi vakillarining nazariy "nuqtai nazarlari" bir xil ekanligi, umuman "funksionalizm to'g'risida" mulohaza yuritmoqchi va uning, intellektual maydondagi aniq va ravshan "o'rni"ni topmoqchi bo'lganlarga u mana shunday imkon berdi. Bu

maqola ijodiy ilhom natijasiga o'xshamaydi. Aftidan u buyurtma bo'yicha yozilgan ko'rinadi; u olimning boshqa ishlaridan tilining o'ta soddaligi va yuzakiligi bilan ajralib turadi. Ochiq aytish mumkinki, agar Redkliff-Braun ishlari orasida qo'rqqmasdan o'tmishda qoldirish zarur bo'lganlari mavjud bo'lsa, mazkur ish so'zsiz o'shalar jumlasiga kiradi. Achinarlisi shundaki, Redkliff-Braun to'g'risida uning aynan mana shu ishi bo'yicha, u yozgan ajoyib ishlarni e'tibordan chetda qoldiribi xulosa chiqarishadi. Shunday bo'lsa ham, mazkur maqolaning e'lon qilinishida muayyan asos bor edi (avvalo o'sha davrlarda borgan

sari modaga aylanayotgan "funksiya" tushunchasiga munosabatni aniqlashtirish ma'nosida). Bundan tashqari unda ko'tarilgan boshqa ba'zi masalalar ham diqqatga loyiqdir: avvalo, "funksiya"ga ta'rif berilgan bevosita Dyurkgeymga murojaat qilish; ikkinchidan, ijtimoiy antropologik tadqiqotlarda ijtimoiy morfologiyannig rolini ko'rsatish (bunda ham Dyurkgeymga murojaat qilish orqali); uchinchidan, jamiyatning funksional birligi to'g'risidagi gipotezani aniq ifodalash; to'rtinchidan, "ijtimoiy tuzilma"ning ustuvorligini aniq va ravshan belgilash.

Maqolada Malinovski to'g'risida bir og'iz so'z aytilmasa ham, ko'pchilik kosa tagidagi nimkosani ilg'ab oldilar. Masalan, E.Evans-Pritchard yozishicha, "Redkliff-Braun (Malinovskiga qaraganda) jamiyatning funksional yoki organizm nazariyasini jamiyatni o'rganishda hukmron bo'lgan usuldan keskin farq qiluvchi usulni olib keldi, shu bilan birga u Amerika antropologlaridan o'z usullarini qayta ko'rib chiqish, maqsadlarni ravshanlashtirish va yangi muammolar va ularni ko'rib chiqish usullariga e'tibor qaratishni talab qildi... Uning hissasi muhimligi to'g'risida uning ishlari atrofida avj olgan munozaralar ham guvohlik beradi. Amerika antropologlari orasida kamdan-kam olimlar unga befarq qolishdi, ko'pchilik esa uning qarashlariga qo'shilish yoki qo'shilmasliklarini ta'kidlashlari zarurligini anglashdi. Keyingi paytlarda Redkliff-Braunga yeolishtirib yozilgan maqola va boblardan kichikroq antologiya tuzish mumkin... Amerikada biror kimsa qat'iy notarixiy metodni taklif qila olmadi... Buni Redkliff-Braun amalga oshirdi"⁵⁹.

Redfild bu ta'sirni juda kuchli deb baholagan edi: "Bu ta'sir hozir yozib bo'lingan va kelajakda yoziladigan, shu jumladan, nima yozayotganliklarini, qanday yozayotganliklarini ham anglamaydigan odamlar tomonidan yoziladigan kitoblarda ham kosa tagidagi nimkosa sifatida sezilib turadi, bu Redkliff-Braunning asari tufaylidir"⁶⁰. Ish Redfild aytgan darajada chuqur ildiz otmagan bo'lsa kerak. Biroq Chikagoda Redkliff-Braun atrofida shogirdlar va izdoshlarning doirasi vujudga keldi, ular Redkliff-Braunning maslahatlari va tavsiyalari bo'yicha ishlashga harakat qilishardi. Uning izdoshlari orasidagi eng yorqin siymolardan

biri U.L.Uornyor edi (keyinroq uning qo'l ostida Chikagoda I.Goffman amaliyot o'tkazdi). Bundan tashqari Redkliff-Braun R.Benedikt, M.MiD, R.Lington, L.Uayt singari yetakchi amerika antropologlariga ham katta ta'sir o'tkazdi. U sosiologiyada tuzilmaviy funksionalizmning shakllanishi (T.Parsons⁶¹, V.Merton)ga ham muayyan ta'sir o'tkazdi.

Agar haqiqatan ham A.Elkin aytganiday, Redkliff-Braun ruhi "payg'ambarlik darajasiga intilgan"⁶² bo'lsa ham Chikagoda bunday hol yuz bermadi. Redkliff-Braun bilan yaqin muloqotda bo'lgan va uning do'stlari doirasiga mansub odamlar unga hayrat bilan qarashardi. Garchi Redkliff-Braun "jamiyat haqidagi tabiiy fanlar" qandaydir maktablar yoki "-izmlar"ning vujudga kelishi yo'l qo'yib bo'lmaydigan hol, deb hisoblasa ham u o'zini so'zsiz jamiyat haqidagi ana shu yagona fanning vakili deb hisoblar va "o'z shaxsiga sig'inish"ning paydo bo'lishiga imkon berar edi, shu yo'l bilan u o'ziga shaxsan bog'liq bo'lib qolgan odamlar uchun begunoh kohinga aylandi. Endi har qancha maqtoovlar ham uning uchun ortiqchalik qilmasdi; u nima ish bajarsa ham muxlislari tomonidan juda oliy darajada baholanar edi. Uning shaxsiga sig'inish uning asarlariga va uning hissasiga asoslanmasdi, balki faqatgina uning o'ziga tayanar edi. Ba'zilar antropologiya bo'yicha ishlarinig dastlabki yillarida, Malinovski seminarlarida iqtirok etgandan keyin uning yo'nalishidagi funksionalistlarga aylanib qoldi, biroq Malinovski vafotidan keyin ular Redkliff-Braunga sodiqliklarini bildirdilar. Ana shunday muxlislikning timsoli sifatida yaqin maslakdoshlari tomonidan uning Chikago va Oksforddagi iste'folariga bag'ishlangan ocherklar to'plamining e'lon qilinishi bo'ldi, shuningdek, Chikago va Angliyadagi "shaxsga sig'inuvchi guruhlar" tomonidan "Ustoz"ning tanlangan asarlari chop etildi. Bu uch kitob yuqori ahamiyatga ega emas, ular Redkliff-Braunga muxlislikning ifodasi bo'lib, bu muxlislik u ni yaxshi bilganlar uchun uning oldida tiz cho'kish darajasida edi"⁶³.

Chikagodagi hamkasabalari Redkliff-Braunning "Jamiyat haqidagi tabiiy fan" (1948) va "Ijtimoiy antropologiya metodi" (1958) to'plamini nashr etdilar va

uning Oksforddagi ijtimoiy antropologiya kafedrası mudiri lavozimiga o'tishi munosabati bilan unga "Shimoliy Amerika hindularining ijtimoiy antropologiyasi"⁶⁴ kitobini bag'ishladilar. Mana shunday sabablar tufayli juda kamdan-kam olimlar ana shunday ehtiromga sazovor bo'ladilar.

Xryotining so'nggi yillari (1937-1955 yy.)

1937 yilda Redkliff-Braun Chikagodagi ishini tashlab, Oksfordga jo'nar ekan, u yerda uni endigina tashkil qilingan ijtimoiy antropologiya kafedrası kutar edi. Bu kafedraga u 1946 yilgacha rahbarlik qildi. Uning oldiga ijtimoiy antropologiyaning nazariy saviyasini ko'tarish vazifasi qo'yilgan edi. Malinovski ta'siri ostida to'xtovsiz kengayib borayotgan dala tadqiqotlari oqimi nazariy jihatdan anglashni talab qilardi, Redkliff-Braun esa, bu masalada eng yaxshi mutaxassys hisoblanardi. Mazkur davrda uning e'lon qilingan ishlarida o'z aksini topgan va topmagan asosiy ishi tushunchalar majmuini sayqallashtirish va qiyosiy tahlil usulini atroflicha ishlab chiqish edi. Xuddi shu davrda uning eng yaxshi maqolalari: "Tabu" (1939), "Hazel-mutoyiba to'g'risida" (1940), "Ijtimoiy tuzilma to'g'risida" (1940), "Qarindoshchilik tizimini o'rganish" (1941), "Din va jamiyat" (1945), "Yana bir marta hazil-mutoyiba to'g'risida" (1949), "Afrikadagi qarindosh-urug'chilik va nikoh tizimi"ga kirish (1950), "Ijtimoiy antropologiyada qiyosiy metod" (1951) e'lon qilindi. Bulardan ba'zilarini haqiqiy shoh asar deyish mumkin. Biroq olimning ko'p vaqt va kuchini daryo berish va hamkasababalari bilan shaxsiy muloqot olib qo'yar edi, shuning uchun ham uning g'oyalardan ko'pchiligi nasllar orqali emas, balki aynan mana shu kanallar orqali tarqalardi⁶⁵. 1940-1942 yillarda Redkliff-Braun Londondagi o'zi 1909 yildan buyon hamkorlik qilib kelayotgan Qirollik antropologiya institutiga rahbarlik qildi. 1942 yilda u Britaniya Kengashi yo'llanmasiga ko'ra Braziliyaga jo'nadi, u yerda 2 yil davomida San-Paulo universitetida ijtimoiy antropologiyadan dars berdi.

1946 yilda olim Oksforddagi kafedraga rahbarlikni tashladi, biroq o'zining shiddatli tashkilotchilik va o'qituvchilik faoliyatini to'xtatmadi. 1946-1947 va 1952 yillarda u o'zining yoshligi bog'liq bo'lgan Birmingem universitetida ma'ruzalar o'qidi. 1952 yildagi ma'ruzalar Avstraliya kosmologiyasiga

bag'ishlandi (bu ma'ruzalarning matni uning vafotidan keyin e'lon qilindi⁶⁶). Xuddi o'sha yili uning eng mashhur ishlaridan biriga aylangan "Ibtidoiy jamiyatdagi tuzilma va funksiya" nomli asarlar to'plami nashr etildi; o'zining Oksforddagi hamkasabalari va shogirdlari tashabbusi bilan nashr etilgan bu to'plamga Redkliff-Braun so'zboshi yozib berdi⁶⁷.

O'zining tashkilotchilik qobiliyati bilan mashhur bo'lgan olim 1946 yilda Iskandariyadagi Faruka I universitetida sosiologiya fakultetini tashkil qilish uchun taklifnoma oldi. 1947-1948 va 1949 yillarni u Misrda, o'zi yangi tashkil qilgan Ijtimoiy tadqiqotlar institutining faoliyatini yo'lga qo'yish bilan o'tkazdi. 1950 yilda u Angliyaga qaytar ekan, Manchester universitetining professori lavozimini egalladi, bu yerda 1952 yilgacha ma'ruzalar o'qidi⁶⁸. Shu yillarda Redkliff-Braun Ijtimoiy antropologiya bo'yicha darslik yozishga kirishdi; biroq sog'lig'ining yaxshi emasligi, uzoq yillar davomida to'plangan charchoq va katta o'qituvchilik yuklamasi uning bu ishni yakunlashiga imkon bermadi. (u yozib ulgurgan dastlabki boblar "Ijtimoiy antropologiya metodi" kitobining ikkinchi qismi sifatida kiritilgan).

Olimning hayotidagi so'nggi yillari o'pkasidagi surunkali kasallikning qo'zg'ashi tufayli qorong'ulashdi, bu xastalik uni avvallari ham bezovta qilar edi, endi esa uni mutlaqo kuchdan qoldirdi. Shunga qaramasdan u imkonni boricha ishlashda davom etdi. 1952 yilda Redkliff-Braun Rode (Grexemstaun) universitetiga taklif qilindi va 2 yilga Janubiy Afrikaga jo'nab ketdi. 1954 yilda u Angliyaga qaytib keldi, yo'lga chiqishdan bir oz avval yiqilib tushdi va bir nechta qovurg'asini sindirdi, bu shikastdan u mo'jizaviy tarzda shifo topgay bo'lsa ham, vataniga og'ir xasta odam sifatida qaytib keldi. Endi u shifoxonadagi koykaga bog'lanib qolgan edi, biroq Fortesning eslashicha, u "o'z taqdiridan hyech qachon shikoyat qilmasdi. U o'zini har qancha yomon his qilsa ham, do'stlari va yosh antropologlar bilan uchrashganda doimo xursand bo'lar edi"⁶⁹. Redkliff-Braun ommada orasida so'nggi ko'rinishlardan biri uning Ijtimoiy antropologlar Britaniya assosiasiyasining yig'ilishida raislik qilishi bo'ldi, bu yig'ilishga u shifoxona koykasidan qiyinchilik bilan turib kelgan va zalda ishtirok

etayotganlarning gulduros va davomli qarsaklari bilan kutib olingan edi⁷⁰. Olim 1955 yil 24 oktyabrda Londonda vafot etdi.

Redkliff-Braun: shaxsiyati, goyalari va maktabi Redkliff-Braunni shaxsan tanigan va u bilan muloqotga kirishgan odamlarning xotiralarida biz ko'pincha uning insoniy sifatleri tavsifiga duch kelamiz, bu tavsiflar juda xilma-xil va ko'pincha bir-biriga zid (ulardan ba'zilarini biz yuqorida keltirib o'tdik). Faqat bir narsa aniq: u oddiy inson emas edi, xarizmatik xususiyatga ega bo'lish bilan birga u kamchiliklardan ham xoli emasdi. Boshqa masalalarda uning tabiati juda ikki tomonlama ko'rinardi. Unga eng xolis va atroflicha bahoni U.Stanner beradi⁷¹: "G'ayrioddiy ko'rinishga ega bo'lgan, sochi ham g'ayrioddiy taralgan, baland bo'yli, yetuklik davrida lol qoldiradigan mardona ko'rinishga ega bo'lgan bu odam atrofida qilarni o'zining o'tkir aqli, hulqi va nazokati, shuningdek g'oyalari bilan maftun qilardi. U juda noyob muallimlik qobiliyatiga ega edi, o'zining predmetini, shuningdek, lektorlik mahoratini va seminarlar rahbari malakasiga shu darajada ega ediki, har qanday murakkab mavzular bo'yicha hyech qanday yozuvlarsiz va tayyorgarliksiz ajoyib mashg'ulotlar o'tkazar edi. Uning asarlari ham odamda ana shunday taassurot qoldirardi". (Bunday- oson dars o'tishni ko'pincha yalqovlik deb ham hisoblar edilar; biroq u o'z asarlarini nashr etishdan avval ko'p martadan qayta ko'chirib yozgani ma'lum⁷².) "Butun umri bo'yicha u odamlarda o'zining ko'p qirrali va murakkab shaxsiyati tufayli turli xil: sadoqat, ambivalentlik yoki dushmanlik singari munosabatlar uyg'otar edi" (M.Fortes shu munosabat bilan u "har doim bir oz odamoviroq va faqatgina shaxsiy do'stlarining kichik doirasi bilan yaqin munosabatlarga kirishar edi, u hyech qachon fil suyagidan yasalgan minoraga yashirinib olmas edi. U mehmonga borish va mehmon qabul qilishni juda yoqtirar edi, talabalar kompaniyasida ham u xuddi majlislar zalidagidek daho edi. U yaxshi taomdan, yaxshi ichimlikdan va ayniqsa yoqimli suhbatdan ulkan lazzat olardi"⁷³.) "Yoshligida u serg'ayrat, ekstravagant va buyuk odam reputasiyasiga ega edi... Yetuklik davrida esa, u odamlar bilan masofada turib muomala qilar va

sirtidan u juda yaqinlik va bog'liqlikdan xafsalasi pir bo'lgandek ko'rinar, kamdan-kam holatlarda o'zgalarga u ichki sirlarini ochar edi.

Garchi u shogirdlarini izlamasa ham, uning atrofida har doim to'garaklar paydo bo'lar edi. Maslakdoshlari davrasida u xushmuomala, talabalari ichida sabrli, mulozamatli va yordam ko'rsatishga har doim tayyor bo'lar edi. Yosh olimlarning bir necha avlodi undan ilhom oliishar, ma'lum vaqtdan keyin esa, ilhomning o'tib ketganini payqar edilar. Shunday odamlar ham bor ediki, ularga u o'zini vayron qiluvchi zaharxandaligi, kuchli nafratini ko'rsatar edi. U boshqa olimlarni ularning o'z sohalarida ham mot qilar, ijtimoiy antropologiya to'g'risida u yaratgan konsepsiya esa boshqa fanlarning muxtoriyati va mustaqilligini shubha ostiga qo'yish uchun asos yaratar edi". {Redkliff-Braun shubhasiz dogmatik edi', bu fikrga uny hatto ilohiylashtirgan muxlislari ham qo'shilishardi. Shunisi ham borki, dogmatiklik biror bir yangi narsa yaratilayotgan va uni hayotga tadbiiq qilayotgan odamlar orasida kam uchraydigan hodisa emas. Redkliff-Braunniing dogmatizmi uning ijodiy ishtiyoqining bevosita davomi edi, bu ham shubhasizdir.

Redkliff-Braunniing tayanch g'oyalari hayoti davomida o'zgarishsiz qolgan bo'lsa ham, ular zo'rg'a ilg'ab olsa bo'ladigan va aniq yo'nalishda rivojlanib borar edi: bu yo'nalish tavsif va tahlilni borgan sari ko'proq formallashtirish va tizimlashtirish tomoniga qarab borar edi. (Shu munosabat bilan uning tayanch tushunchalar va taklif qilayotigan metodlarini tadbiiq qilishning eng to'la namunalari hayotining so'nggi yillarida yozilgan asarlarida ko'zga tashlanishini eslatib qo'ymoqchimiz.)